

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi

Namangan muxandislik-texnologiya instituti

“To'qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiya”
kafedrası

“Maxsus texnologiyasi va jihozlari” fanidan
uslubiy qo'llanma

Laboratoriya topshiriqlarini bajarish uchun

Namangan - 2012

D.G.ALIEVA

Ushbu laboratoriyani bajarish uchun uslubiy ko'rsatma 5540500 ta'lim yonalishidagi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, bunda «Maxsus texnologiya» fanidan to'quvchilikga jarayonining texnologik ko'rsatkichi aniqlash va uni tahlil qilish, aniqlash masalalarini o'rganish.

Tuzuvchi:

dotsent D.G.Alieva

Taqrizchilar:

dotsent X.Parpiyev

dotsent M.Abduvohidob

1- Laboratoriya mashg'uloti

Mavzu: To'quvchilik jarayonini o'timlari.

Ishdan maqsad: To'qima ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini o'zlashtirish

Topshiriqlar:

1. Tanda va arqoq iplarini to'quvchilikka tayyorlash texnologik jarayonlari bilan tanishish.
2. Paxta tolali, shoyi va boshqa keng assortimentli to'qimalar ishlab chiqarish uchun texnologik jarayonlar ketma-ketligi.

Asosiy ma'lumotlar

To'quvchilik jarayoni uchun xom ashyo – ip turiga qarab, yigiruv korxonalarini yoki kimyo zavodlaridan, ipakchilik korxonalaridan olib kelinadi.

Yigiruv, pillakashlik, ip pishitish va kimyoviy zavodlarda ishlab chiqarilgan iplar mato chiqarish korxonalariga turli o'ramalarda keltiriladi. Yigirilgan iplar qog'oz naychalarda yoki bobinalarda, tabiiy ipak yigirilganda, pishirilgan iplar bobina yoki gardishli g'altaklarda, kimyoviy iplar bobinalarda keltiriladi. Bu o'ramlarni mato ishlab chiqaruvchi mashina va dastgohlarda hamma vaqt xam bevosita o'rnatib bo'lmaydi. Ko'p hollarda mato ishlab chiqarishda, uni eniga qarab katta guruh iplar jamlanib bitta o'rama tanda yoki to'quv g'altaklarga o'raladi. Bundan tashqari iplarni tayyorlash jarayonlarida sifat nazoratdan o'tib, yaxshilanadi. Ayrim hollarda tayyorlash jarayonida iplarga maxsus ishlov berilib – to'quvchilikda ohorlash, trikotaj va noto'qima matolar ishlab chiqarishda parafinlash va boshqalar keyingi jarayonlarni iqtisodiy samaradorligini oshirishga erishiladi.

To'quvchilikka tanda va arqoq iplarni tayyorlash jarayonlari, ishlab chiqariladigan mahsulot va xom ashyo turi, keltiriladigan o'rama va mavjud to'quv dastgohiga bog'liq. Ip gazlamalar ishlab chiqarishga, tanda iplari qayta o'rash tandalash -ohorlash va shoda terish yoki tugun ulash jarayonlardan o'tsa, arqoq ipi dastgohni turiga qarab mokili dastgoh uchun, yigiruv naychasidan bobinaga, so'ngra yana bobinadan yogoch naychalarga qayta o'raladi. Mokisiz dastgohlarga esa bobinalarda o'rnatiladi.

Shoyi gazlamalar ishlab chiqarishga iplar yigirilganlarda (xom ipak) yoki gardishli g'altaklarda (pishirilgan ipak) keltiriladi. Tanda iplari to'quvchilikka tayyorlanganda xom ipak tarkibida seritsin (elim modda) bo'lganligi uchun tabiiy ipak ohorlash jarayonidan o'tmaydi.

Trikotaj va noto'qima matolar ishlab chiqarishda iplarni tayyorlash jarayonlari to'quvchilikka nisbatan ancha kam.


To'quvchilik iplarga qo'shimcha ishlov berish- parafinlash qayta o'rash jarayonida bajariladi.

To'qimachilik matolarini ishlab chiqarishda iplarni tayyorlash jarayonlarini to'g'ri tanlash ularni ishini sifatli va yuqori unumli tashkil etish, mahsulot ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini asosiy omili hisoblanadi.


**Mokisiz va mokili dastgohlar uchun to'quv ishlab chiqarish
texnologik jarayonlari ketma-ketligi.**

Variant – 1


**Paxta tolali gazlamalar ishlab chiqarish
texnologik jarayonlari zanjiri**




Variant – 2



Shoyi to'qimalarni ishlab chiqarish jarayoni variantlari Variant – 1 (Arqoq ipini to'quvchilikka tayyorlash)



Variant – 2 (Tanda ipini to'quvchilikka tayyorlash)



Uslubiy ko'rsatmalar.

To'quvchilikka tanda va arqoq iplarni tayyorlash jarayonlarini o'rganish. Ishlab chiqariladigan mahsulot va xom ashyo turiga, keltiriladigan o'rama va mavjud to'quv dastgohiga bog'liq holda to'quvchilik jarayonini tanlashni o'rganish. Har bir jarayonda qo'laniladigan mashina va dastgoxlarni tug'ri tanlash va asoslash. To'qimachilik matolarini ishlab chiqarishda iplarni tayyorlash jarayonlarini to'g'ri tanlash ularni ishini sifatli va yuqori unumli tashkil etishda, mahsulot ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorligini oshirilishi to'qrisida kerakli ma'lumotlar olish.

Ushbu laboratoriya topshirig'ini bajarish uchun To'quv texnologiyasi va jixozlari faniga doir ma'ruza matnlaridan, ko'rgazmali qurollardan, video vositalaridan va turli adabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Hisobat shakli.

1. Jun to'qimalarni ishlab chiqarish texnologik jarayonlari ketma-ketligini chizish va xar bir jarayoni asoslash ,shunindek mashina va dastgoxlarni markalarini aniqlash.(O'qituvchi tomonidan berilgan artikular).

2. Kanop to'qimalarni ishlab chiqarish texnologik jarayonlari ketma-ketligini chizish va xar bir jarayoni asoslash ,shunindek mashina va dastgoxlarni markalarini aniqlash. (O'qituvchi tomonidan berilgan artikular).

3. Texnik to'qimalarni ishlab chiqarish texnologik jarayonlari ketma-ketligini chizish va xar bir jarayoni asoslash,shunindek mashina va dastgoxlarni markalarini aniqlash. (O'qituvchi tomonidan berilgan artikular).

2-laboratoriya ishi.

Qayta o'rash jarayonda ipni tarangligini nazorat qilish.

Ishdan maqsad: Ip tarangligiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni aniqlashni o'rganish.

Ishning mazmuni.

1. Qayta o'rash jarayonida iplarning tarangligi.
2. Ipni umumiy tarangligi.
3. Qayta o'rashdagi o'ramalarning ko'rsatkichlari.

Asosiy ma'lumotlar

1.Qayta o'rash jarayonida iplarning tarangligi.

1. ballon so'ndirgich $\Phi\Pi\Pi\Pi$ taranglik
2. Iplarni qayta o'rash jarayonidagi tarangligi qulay tuzilishga ega bo'lish nimaga bog'lik.
3. umumiy taranglik
4. ballondagi taranglik
5. ipning yo'naltiruvchilar bilan ishqalanishi natijasida hosil bo'ladigan iplarning tarangligi

1.1 Taranglovchi moslamalarga quyidagi talablar

- 1.ipning taranglovchi moslamadan keyingi tarangligi
- 2.Moslamaning afzalligi uni tuzilishini soddaligidadir
- 3.Ipni taroqsimon moslamadan keyingi tarangligini
4. Tormozlash hisobiga taranglovchi moslamadagi ip tarangligi

1.2. Qayta o'rashda ipni tozalash va nazorat qilish.

- 1.plastinalar orasidagi masofa
- 2.Moslamaning afzalligi

1.3. Iplarning o'ralish zichligi

- 1.Qayta o'rash jarayonining asosiy texnologik omillari
- 2.Iplarning o'ralish zichligini aniqlovchi omillar

2.Ipni umumiy tarangligi.

Iplarni qayta o'rash jarayonidagi tarangligi qulay tuzilishga ega bo'lgan o'rama hosil qilish, iplar uzilishini kamaytirish, me'yoriy o'ralish zichligini ta'minlash uchun kerak bo'lib, u quyidagi 3 xil tarangliklar yiqindisidan iborat bo'ladi.

$$F = F_b + F_{ish} + F_{pr}$$

F - umumiy taranglik, sn;

F_b - ballondagi taranglik, sn;

F_{ish} - ipning yo'naltiruvchilar bilan ishqalanishi natijasida hosil bo'ladigan iplarning tarangligi, sn;

F_{pr} -taranglovchi moslama hosil qiluvchi taranglik, sn.

$$F_b = \frac{2 H^2 \omega^2 (1 + \cos \alpha) m}{\pi^2 \cdot \cos^2 \alpha (R_b + 1)^2} \quad (sn);$$

N - chuvalish nuqtasidan yo'naltiruvchigacha bo'lgan masofa;

ω - ballondagi iplarning burchak tezligi;

m - ip uzunligining texnik massa birligi;

R_v - ballondagi to'lqinlar soni;

α - naycha o'qi hamda ballon orasidagi burchak.

α

$$F_{ish} = F_b e^{f \cdot \alpha} - m \cdot v^2 (e^{f \alpha} - 1) + m a e^{f \alpha} \int \rho(\alpha) e^{-f \alpha} d\alpha,$$

F_b - ipni yo'naltiruvchigacha bo'lgan tarangligi, n;

f - yo'naltiruvchidagi ishqalanish koeffitsenti;

α - yo'naltiruvchidagi ipning aylanma burchagi;

m - ip uzunligining masofa birligi, $\kappa G \cdot \text{sek}^2 / m^2$;

v - qayta o'rashda ip tezligi, m/sek;

a - ipning xarakat tezlanishi, m/sek²;

ρ - yo'naltiruvchi yuzasining radiusi, m;

$$F_{pr} = F_b e^{f \cdot \alpha} + K_u \cdot Q$$

F_b - ipning taranglovchi moslamagacha bo'lgan tarangligi, sn;

f - ip va yo'naltiruvchi orasidagi ishqalanish koeffitsenti;

α - ipning yo'naltiruvchidagi qamrov burchagi;

K_u -ipning moslama ishchi qismlari bilan tormozlanish shartlarini aniqlash koeffitsenti;

Q - shayba yoki diskni ipga nisbatan jamlovchi kuch bosimi.


3.Qayta o'rashdagi o'ramalarning ko'rsatkichlari.

Qayta 'rash jarayonigadi o'ramalarning ko'rsatkichlariga ,ularning geometrik o'lchamlari xajmi,og'irligi,o'rash zichligi kiradi.

geometrik o'lchamlariga o'ramani uzunligi,balandligi va eni kiradi.

Masalan babinani balandligi,katta va kichik radiusi o'lchab olinadi va formulalar orqali o'ralgan ipni xajmi,og'irligi,o'rash zichligi aniqlanadi.

Konussimon ip o'ramining hisobi.



N – o'ram bandligi, mm

r – babina patronini katta radiusi, mm

r₁ – babinaning patronini kichik radiusi, mm

R – babinaning katta radiusi, mm

R₁ – babinaning kichik radiusi, mm

1. Konussimon o'ramdagi ipning xajmi.

$$V = \frac{\pi * H}{3} [(R^2 + R_1^2 + R * R_1) - (r^2 + r_1^2 + r * r_1)] \quad [cm^3]$$

2. O'ramdagi ipning nisbiy uralish zichligi, gr/sm³.

3.

$$Y = G / V$$

G- o'ramdagi ipning og'irligi, gr.


V-. o'ramdagi ipning xajmi, sm³

3. Konussimon o'ramga uralish mumkin bo'lgan eng katta uzunligi.

$$L_{\text{юкори кон.ур}} = \frac{G * 1000}{T_T} [m]$$

T – ipining chizikli zichligi, teks

Tsilindrsimon ip o'ramining hisobi.



D_{ur} – o'ram kalinligi, mm

d_p – patron kalinligi, mm


n – o'ram balandligi, mm

1. Tsilindrsimon ip o'ramini xajmini hisobi.

$$V = \frac{\pi * H}{3} * (D_{yp}^2 - d_{II}^2) [cm^3]$$

TSilindrsimon ip o'ramini qolgan boshqahisoblari konussimon ip o'rami bilan bir xilda olib boriladi.

Yigiruv ip o'ramining hisobi.



D – o'ramni tsilindrsimon qismini kalinligi, sm

d – patronni pastki qismi qalinligi, sm

d_1 – patronni yuqori qismi kalinligi, sm

N – o'ramni tsilindrsimon qismi balandligi, sm

h – pastki konus o'ram qismi balandligi, sm

h_1 – yuqori konus o'ram balandligi, sm

$$h = (0,75.D), \text{ sm} \quad h_1 = (1,25.D), \text{ sm}$$

O'ram kalinligi: $D = D_k * (3-4)$, mm

D_k – xalqali yigiruv mashinasining qalinligi

1. Yigiruv ip o'ramidagi ipning xajmi, sm^3

$$V = \frac{\pi}{12} [(D^2 + d^2 + D * d) * h + (D^2 + d_1^2 + D * d_1) * h + 3 * D^2 + H - (d^2 + d_1^2 + d * d_1) * (h + H + h_1)] [cm^3]$$

2. Yigiruv ip o'ramidagi ipning o'ram zichligi, $grG'sm^3$

$$Y = G / V$$

G – o'ramdagi ipning o'irligi, gr.

V – o'ramdagi ipning xajmi, sm^3

3. Yigiruv ip o'ramidagi ipning uzunligi, metr

$$L_{\text{muz.yp}}^{\text{юкопу}} = \frac{G * 1000}{T} [M]$$

T – ipining chizikli zichligi, teks

Uslubiy ko'rsatmalar.

Ushbu laboratoriya topshirig'ini bajarish uchun to'quv texnologiyasi va jixozlari faniga doir tekshiruvchi asboblardan, ma'ruza matnlardan, ko'rgazmali qurollardan, video vositalaridan va turli adabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

1.Ishlab chiqarish sharoitida ipning tarangligini tenzometr yordamida o'lchanadi va nazorat qilib turiladi.Natijalar 1jadvalga yoziladi.

Balondagi taranglik	Ishqalanish natijasidagi taranglik	taranglovchi moslamadagi taranglik	Umumiy taranglik, sn	Izox

2.Qayta o'rash bo'limiga kiruvchi va chiquvchi ip o'ramlarni tuzilishini, shaklini organish.(naycha,bobinalar,g'altak)

3.Turli iplar uchun (paxta,jun,kanop,kimyoviy) o'ramadagi ipning xajmini,og'irligini,o'ram zichligini va ip uzunligini aniqlang. 2.Jadval toldiring.

O'ram turi	O'ralgan ipni chizi-qiy zich-ligi,teks	O'ralgan ipni xajmi, cm ³	O'ralgan ipni og'irligi,gr	O'ralgan ipni o'rash zichligi g/cm ³	O'ralgan ipni uzunligi,m.	Izox
Nay cha						
Konusi mon babina						
Silindr - simon babina						
G'altak						

Qiymatlarni olish uchun o'ramlarni olchash va og'irligini topish kerak.
Oramlarni o'lchami.

	R	R ₁	r	r ₁	G
Kon.babina					
Sil.babina					
G'altak					

Naycha					
--------	--	--	--	--	--

Xisobot shakli

- 1.O'qituvchi tomonidan berilgan ipni umumiy tarangligini aniqlang, ipni balondagi, ishqalanish, moslamadagi tarangliklarni tenzometr orqali aniqlang, o'z aro solishtiring.
2. 2-jadvalni o'lchash va hisob asosida to'ldiring va hulosa yozing.

3-laboratoriya ish.

Mavzu: Tandalash jarayondagi iplarning tarangligi.

Ishdan maqsad: Ip tarangligini aniqlash usullarini o'rganish.

Ishning mazmuni.

1. Tandalash jarayondagi taranglovchi moslamalarni sozlash.
2. Tandalash jarayonda ip turi bo'yicha taranglikni o'rnatish.

Asosiy ma'lumotlar

Hozirgi paytda turli hildagi taranglovchi moslamalar qo'llaniladi . Yuqori darajada avtomatlashtirilgan va mehanizatsiyalashtirilgan tanda taranglovchilar mavjud. Lekin bu taranglovchi moslamalarning narhi juda baland. Shuning uchun mavjud taranglovchi moslamalarni zamonaviylariga almashtirishning iqtisodiy samaradorligi hisobga olish kerak. Ba'zi hollarda odiiy taranglovchi moslamalarni qo'llash maqsad muvofiqdir. Taranglovchi moslamalarga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Tuzilishi sodda bo'lishi, taranglikni tez sozlasi va bir ushlab turishi.
 2. Turli hil taranglik hosil qilish imkoniyati borligi.
 3. O'z-o'zini tozalash imkoniyati borligi.
 4. Elementar iplarni siljib ketishining oldimi olish, bu kimyoviy va pishirilgan iplar tandalash muhim ahamiyadga ega.
 5. Yemirilishga chidamli ip o'tkazuvchi elementlarning qo'lanishi.
 6. Barcha taranglovchi moslamalarni markazlashtirilgan holda sozlash imkoniyati.
 7. Ishlatish jarayonida ishonchliligi.
- Turlanish bo'yicha taranglovchi moslamalar uch sinifga bo'linadi.
Sozlanmaydigan, o'zi sozlanadigan va masofadan turib sozlanadigan.

Shaybali taranglovchilar 1-2-3 zonali bo'ladi. Barcha holatlarda taranglovchi moslamadan chiqadigan ipning tarangligi F quyidagi tenglama boyicha aniqlashi mumkin:

$$F=F_0+2\int \sum Q_i$$

Bu erda, F_0 - ipning boshlang'ich tarangligi cH ;

f - ipning shaybaga ishqalanish koeffitsienti;

n - taranglovchi ishchi zonalar soni;

Q_i - ustki shaybalarining umumiy og'irligi.

Shaybali taranglovchi sodda va arzon bo'lganligi sababli juda keng tarqalgan, lekin ularning quyidagi kamchiliklari bor;

1. Ular tezda ifloslanadi, natijada, ipning shaybalarga ishqalanish koeffitsienti o'zgarib, taranglik qiymatlari orasidagi farq ko'payib ketadi.

2. Ipning yo'g'gon joylari o'tgan paytda taranglikning keskin ortib ketishi va buning natijasida ipning uzilishi ortadi.

3. Tandalash romiga o'rnatilgan taranglovchi moslamalar ustki shaybalarining og'irligi ham, iplarning taranglik ham har xil bo'adi.

Tugun o'tgan paytda taranglikning keskin oshib ketishini kamaytirish maqsadida ustki shaybaning og'irligi birmunchi kamaytiriladi.

Kerak bo'lgan taranglik esa moslamaning ishchi zonalar sonini oshirish yoki ustki shaybani prujinalashtirish hisobiga hosil qilinadi.

Sanoatda taroqsimon taranglovchilar keng tarqalgan, ularning ishlash prinsipi bironta yuzani aylanib o'tgan paytda ishqalanishi hisobidan ipning tarangligi ortishiga asoslangan. Bunday taranglovchi moslamalar hosil qilayodgan taranglik quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$F = F_0 e^{f\alpha}$$

bu erda α - ipning yo'naltiruvchilarni aylanib o'tish burchagi, grad.

Tajriba shuni korsatadiki, bu turdagi taranglovchi moslamalarda ipning yo'g'gon joyi o'tgan paytda, taranglik keskin ortib ketmaydi. Taroqsimon taranglovchi moslamalarda taranglik qiymatining farqlari shaybali moslamalarda nisbatan ko'proq bo'ladi.

Bu taranglovchi moslama, asosan, piltalab tandalash mashinasida kimyoviy tolalarni tandalashda qo'llaniladi.

Sanoatga aralash usulda taranglikni hosil qiluvchi moslamalar keng tarqalgan. Bunday taranglovchi moslamalarda taranglik shaybalarining og'irligi va iplarni yo'naltiruvchi barmoqlarni aylanib o'tishi hisobidan hosil qilinadi. Bunday moslamalarning ko'plab turlari mavjud. Ularning barchasida shaybali va taroqsimon taranglovchilarning elementlari qo'llanilgan.

Tarangligi sozlanmaydigan moslamalarning eng istiqbolli guruhiga rolikli turlar kiradi. Ular hozircha ko'plab ishlab chiqilmaydi. Ularning afzalligi iplarning ancha kam tutilishidir. Bu moslamalarda ip rolikni aylanib o'tadi va uni harakatlantiradi.

Ip tarangligini hosil qilish uchun rolik yuklar, tormozlovchi tasma yoki magnit yordamda tormozlanadi. Barcha hollarda bu moslama hosil qilayodgan taranglik quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$F=F_0=M_t R$$

Bu yerda, M_t -rolikka ta'sir etayotgan tormozlovchi moment ; R -ip ta'sir etayotgan rolikning radiusi; $M_t R$ -qiymati F_0 dan ancha katta.

Shuning uchun bunday taranglovchilar hosil qilayotgan taranglik boshlag'ich holatidagiga qariyb bog'liq emas.

Rolikli taranglovchilarga qo'yilayotgan asosiy talab-tormozlovchi momentning bir hil bolishidan iborat.

Rolikli taranglovchilardan qayta ishlanayotgan iplarning chiziqli zichligi kam va juda yuqori bo'lganda foydanish mumkin.

O'zi sozlanivchi taranglovchilarni ikki guruhga ajratsa bo'ladi:-teskari bog'lanishi bo'lmagan parametrik va bolgan avtomatik taranglovchilar.


Uslubiy ko'rsatmalar.

Ushbu laboratoriya topshirig'ini bajarish uchun to'quv texnologiyasi va jixozlari faniga doir tekshiruvchi asboblardan, ma'ruza matnlardan, ko'rgazmali qurollardan, video vositalaridan va turli adabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ishlab chiqarish sharoitida ipning tarangligini tenzometr yordamida o'lchanadi va nazorat qilib turli iplar uchun aniqlang.

	Ip turi	Tanda galtagi				
		O'ralgan ipni chiziqliy zichligi, teks	O'ralgan ipni og'irligi ,gr	O'ralgan ipni hajmi,cm ³	O'ralgan ipni nisbiy zichligi,gr/cm ³	O'ralgan ipni tarangligi,
1	Paxta ipi					
2	Shoi ip					
3	Paxta aralash.ip					

Tanda g'altagini o'lchamlari.



$D_H = D_\phi - (20-30)$ (мм) Ўрам диаметри

H – давра ғалтаги дисклари орасидаги масофа (мм)

1. Давра ғалтагидаги ипнинг хажми.

$$V = \frac{\pi * H}{4} * (D_{yp}^2 - d_y^2) [cm^3]$$

3. Давра ғалтагидаги ипнинг оғирлиги.

$$G = \frac{V * \gamma}{1000} \quad [кг]$$

Бу ерда γ - давра ғалтагига уралаётган ипнинг нисбий зичлиги
 V - давра ғалтагидаги ипнинг хажми

Ип тури	γ нисбий зичлиги гр.см ³
Пахта ипи	0,48–0,58
Жун иплари	
Камвол	0,37–0,48
Аппарат	0,34–0,46
Каноп иплари	0,55–0,62
Кимёвий толали иплар	0,6–0,68

4. Давра ғалтагидаги ипнинг узунлиги.

$$L_{\text{юкори дав.гал}} = \frac{G * 10^6}{T^T * M_g} [м]$$

Бу ерда : G – давра ғалтагидаги ипнинг оғирлиги [кг]
 T^T – танда ипнинг чизикли зичлиги [текс]
 M_g – давра ғалтагидаги иплар сони [дона] (шпулярник)

Хисобот shakli

1. Taranglovchi moslamalarga quyilgan talablarni ko'rsatish kerak.
2. Taroqsimon taranglovchi noslamani ishqalanishi hisobidan ipning tarangligi ortishiga asoslang. Bunday taranglovchi moslamalar hosil qilayodgan taranglikni hisobini qiling.
3. O'qituvchi tomonidan berilgan ip uchun tanda galtagini og'irligini, hajmini va uzunligini aniqlan. jadval to'ldirilsin.
4. Toldirilgan jadval asosida va hisob natijalari asosida hulosa yozing.

4laboratoriya ishi.

Mavzu: Ohorlash jarayonini nazorat qilish va avtomatik tarzda rostdlash.

Ishdan maqsad: Ohorlash jarayonini nazorat qilish va avtomatik tarzda rostdlash o'rganish.

Ishning mazmuni.

1. Ohorlash jarayonini oxor sifatini tekshirish .
- 2.Oxorlash jarayonida tanda iplarining cho'zilishi.
3. O'ralish tezligini va zichligini ta'minlovchi rostlagich

Asosiy ma'lumotlar

Oxor sifatini tekshirish.

Oxor sifati uni tashqi ko'rinishi va fizik-kimyoviy xususiyatlariga qarab aniqlanadi. Oxorni tashqi ko'rinishi bo'yicha tiniq va mayda bo'lakchalarsiz bo'lishi kerak.

Oxorning fizik-kimyoviy xossasini tekshirishda oxor tarkibining reaksiyasi tekshiriladi. Unda reaksiya neytral bo'lishi kerak.

Tanda ipiga oxorning singishi hamda o'ziga olish qobiliyati **oxor qovushqoqligi**(V) deyiladi va uni viskozimetr yordamida aniqlanib, bunda oxor oqib ketish vaqtini suv oqib ketish vaqtiga nisbati bilan ifodalanadi:

$$V = t_{ox} / t_{suv}$$

t_{ox} - qovushqoqlikni aniqlash idishidagi oxorning oqib ketishi uchun ketgan vaqt, sek;

t_{suv} - shu xajmdagi suvning oqib ketishi uchun ketgan vaqt, sek.

Oxor komponentlari miqdorini umumiy oxor hajmiga nisbati shu moddaning **konsentratsiyasi** deyiladi. Oxorning konsentratsiyasi (K) elimlovchi modda o'qirligini, oxor hajmiga nisbati bilan aniklanadi:

$$K = G(100 - W) / V, \%$$

G - elimlovchi modda o'qirligi, kg;

W - elimlovchi modda namligi, %;

V - oxor hajmi, kg.

Oxorlanish miqdori va uni aniqlash

Iplarni oxorlash jarayonidan keyingi o'qirligini ortishi **oxorlanish miqdori** deyiladi va u foizlarda ifodalanadi.

Oxorlanish miqdori 2 xil bo'ladi:

1. YUzaki (P_{yu})

2. O'qiqiy (P_{haq})

1. YUzaki oxor miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P_{yu}=(G_k-G_o)100/ G_o, \%$$

G_k - tanda iplarining oxorlanishdan keyingi oQirligi, kg;

G_o - tanda iplarining oxorlashgacha bo'lgan oQirligi, kg;

2. Xaqiqiy oxorlanish miqdorini aniqlashda tanda iplarining oxorlashgacha va oxorlashdan keyingi namligi hisobga olinadi va u quyidagicha topiladi:

$$P_{xaq}=P_{yu}-(W_k-W_o) \%$$

P_{yu} - yuzaki oxor miqdori, %;

W_k - tanda iplarining oxorlashdan keyingi namligi, %;

W_o - tanda iplarining oxorlashdan oldingi namligi, %.

YAngi assortiment ishlab chiqarishda oxor miqdorini quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P = a \cdot K_p \cdot K_z \cdot K_b \cdot K_r \cdot K_t \%$$

a - etalon to'qima uchun qabul qilingan oxorlanish miqdori;

K_p - to'qima yuzasini hisobga oluvchi koeffitsent;

K_z - 10 sm. to'qimaga tog'ri keladigan xomuzalar sonini hisobga oluvchi koeffitsent;

K_b - tig'dan o'tgan iplar zichligini hisobga oluvchi koeffitsent;

K_r - gulalar zichligini hisobga oluvchi koeffitsent;

K_t - to'qimani xususiyatlarini hisobga oluvchi koeffitsent.

Paxta tolali iplar uchun oxor miqdori 5-12%;

jun iplar uchun 6-11%;

viskoza iplar uchun 2-3%;

kanop iplar 4-10%ni tashkil etadi.

Oxorlanish miqdori oxor kontsentratsiyasiga, uning qovush-qoqligiga, siqish darajasiga, ipni oxorda bo'lish vaqtiga, uning turiga, naviga, chiziqli zichligi va eshilganligiga, to'qimani tanda va arqoq bo'yicha zichligiga, o'rinish turiga bog'liq.

Oxorlash jarayonida tanda iplarining cho'zilishi.

Oxorlash jarayonida iplar ma'lum taranglik ostida bo'ladi va bu taranglik bir xil bo'lishi kerak. Taranglik mashina ishchi organlarining tezliklar farqi hisobiga hosil bo'ladi, bu hol iplarning cho'zilishiga olib keladi.

Oxorlash jarayonida iplarning cho'zilishi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$V=(V_2-V_1)100/V_1, \%$$

V_1 - kiruvchi organ tezligi, m/min;

V_2 - chiquvchi organ tezligi, m/min.

Paxta tolali tanda ipi uchun chuzilishi miqdori 0,7 - 1,2%

Jun tolali tanda ipi uchun 1-1,5 %

Kanop tolali ip uchun 0,5-0,8 %

Sun'iy ipak uchun 3 - 6 %

Iplarning cho'zilishi muqobil miqdordan ko'payib ketsa, tanda iplarining sifati kamayadi, bu hol esa to'quv dastgohida iplar uzilishni ko'payishiga olib keladi.

Cho'zilish miqdorini rostlab turish uchun oxorlash mashinalari tenglashtiruvchi mexanizmlar bilan jihozlangan. SHB-9/140 mashinalarida 4 ga tenglashtiruvchi mexanizm o'rnatilgan. Bu mexanizmlar cho'zilish miqdorini mashinaning quyidagi zonalarida o'zgartiradi:

I - tortish vali va siqish vali;

II - siqish vali va quritish barabanlari;

III - quritish barabani va ikkinchi tortish vali;

IV - ikkinchi tortish vali va chiqish vali.

Tenglashtiruvchi mexanizmdagi etaklovchi valning tezligi doimiy va o'zgaruvchan xarakatlardan tashkil topgan. Tenglashtiruvchi mexanizm yordamida cho'zilishni 15 % gacha o'zgartirish mumkin.

Avtomatik rostlagichlar.

Hozirgi vaqtda oxorlash mashinalarida quyidagi omillar nazorat qilinib turiladi va rostlanadi: mashina zonalar bo'yicha ip tarangligi, ipning cho'zilishi, siqish valining bosimi, quritish barabandagi harorat, oxor idishidagi oxor harorati va uning satxi, to'quv G'altagiga ipni o'ralish zichligi.

O'ralish tezligini va zichligini ta'minlovchi rostlagich

To'quv G'altagiga tanda ipini o'rash vaqtida tezlikni doim bir xilda saqlab turish uchun oxorlash mashinasiga avtomatik tezlik rostlagi o'rnatilgan. Rostlagich taxogeneratoriga o'ralish zichligini ta'minlovchi (10-rasm) rostlagichning ikki elkali richagiga joylashtirilgan Z_1 , Z_2 tishli Qildiraklar orqali xarakat beriladi va taxogenerator elektrodvigatelni to'quv G'altagidagi o'rama diametriga mos holda aylanishini ta'minlaydi.

To'quv G'altagiga o'ralish zichligi diferentsial mexanizmdan tashqari zichlash rostlagichi yordamida ham o'ralish davomida bir me'yorda saqlab turiladi.

CHiqaruvchi valning tezligi quyidagicha aniqlanadi:

$$V = \pi \cdot D_v \cdot n_v = \text{const}$$

Tanda ipining to'quv G'altagiga o'ralishi davomida o'ramaning diametri ko'payib boradi. Ipning chiziqli tezligi quyidagicha bo'ladi:

$$V = \pi \cdot D_{ip} \cdot n_n$$

D_{ip} - to'quv G'altagidagi o'rama diametri;

n_n - G'altakning aylanishlari soni.

Formuladan ko'rinib turibdiki, o'ralish tezligi doimiy saqlash uchun o'ramaning diametri oshib borgan sari G' altakni aylanishlari sonini kamaytirish lozim.

Uslubiy ko'rsatmalar.

Ushbu laboratoriy topshirigini bajarish uchun to'quv texnologiyasi va jixozlari faniga doir tekshiruvshi asboblardan, ma'ruza matnlardan, ko'rgazmali qurollardan, video vositalaridan va turli adabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ishni bajarish uchun :

1. tanda va to'quv galtaglaridan namuna iplari olinadi. Iplarni ogirligi torazada tortilib aniqlanadi.

2. Tanda ipiga oxorning singishi hamda o'ziga olish qobiliyatini viskozimetr yordamida aniqlanadi, bunda oxor oqib ketish vaqtini suv oqib ketish vaqtiga nisbati bilan aniqlanadi.

3. O'qituvchi tomonidan berilgan assortiment uchun ishlab chiqarishda oxor miqdorini tayorlash.

4. Taranglik mashina ishchi organlarining tezliklarini aniqlash va oxorlash jarayonida iplarning cho'zilishini formula orqali topish.

Xisobot shakli.

1. Oxor qovushqoqligini va oxor komponentlarini miqdorini qiymatlar asosida xisob-kitib qilish.

2. Yuzaki (P_{yu}) va xaqiqiy (P_{haq}) oxor miqdorini olngan qiymatlar asosida xisob-kitib qilish.

3. O'qituvchi tomonidan berilgan assortiment uchun oxor miqdorini toping.

4. Oxorlash jarayonida tanda iplarining cho'zilishini aniqlang.

5laboratoriya ishi.

Mavzu: Toquv dastgoxining texnologik parametrlari.

Ishdan maqsad: Toquv dastgoxining texnologik parametrlarini o'rganish.

Ishning mazmuni.

1 To'quv dastgoxini texnologik parametrlari

2. To'quv dastgoxini parametrlari:

3. To'quv dastgoxida ishlab chiqariladigan to'qimani parametrlarini tanlash.

Asosiy ma'lumotlar.

1. To'quv dastgoxini texnologik parametrlari.

Dastgoxini texnologik parametrlari dastgoxning markasi, to'qimani tasnifiga va iplarni tuzilishiga, xossalriga bog'liq. Ular dastgoxni ishlash unumdorligiga

katta tasir ko'rsatadilar. To'quv dastgoxini texnologik parametrlari to'qiladigan to'qima artikuli va dastgoxning markasiga qarab tanlanadi. Ayrim ko'rsatkichlarni texnologik parametrlarga kirgizish mumkin (tanda galtagidagi iplar soni) bu asosan tayorlov bo'limidagi ko'rsatkichlar.

Dastgoxni passport ko'rsatkichlari yoki mashina parametrlari bilan ,dastgoxda o'rnatiladigan parametrlar bilan adashtirish mumkin emas. Mashinani passport ko'rsatkichlari yoki parametrlari – bu mashinani ishlash imkoniyati., texnologik parametrlar – bu tanlangan iplardan to'qima to'qish uchun o'rnatiladigan parametrlar. o'rnatiladigan parametrlar doimmo mashinani passport ko'rsatkichlarini meyorida bo'lishlari shart.

2.To'quv dastgoxini parametrlari:

- 1) bosh valning aylanish chastotasi;
 - 2) tanda iplarini taxtlash tarangligi, urush poloskasini miqdori;
 - 3) zastup miqdori;
 - 4) skloni vertikal va gorizonta bo'yicha joylanishi;
 - 5) 1pog.m.to'qimada tanda va arqoq iplarini uzulish soni.
- dastgoxini texnologik parametrlari, asoslangan xolda qabul qilinishi mumkin.
- hisob-kitob usuli bilan, ayrim parametrlarga, juda cheklangan miqdorda;
 - ayrim soxalarda, soxali ilmiy tekshiruv institutlarida ishlab chiqilgan meyor va rejaviy ipni qayta ishlashdagi xujjatlar;

3.To'quv dastgoxida ishlab chiqariladigan to'qimani parametrlarini tanlash.

STB rusumida paxta ipli to'qima ishlab chiqarish parametrlari (1)jadvalda keltirilgan.

Таблица 5.1. Заправочные параметры станков СТБ при выработке хлопчатобумажных тканей

[illegible]

Таблица 5.2. Типовые параметры заправки ткацких станков СТБ для шерстяных тканей

Параметры	Саржевого переплетения и ее производных					Полотняного переплетения						
	СТБ2-180			СТБ2-330		СТБ2-180			СТБ2-330			
Марка станка	III	VI	I	II	IV	V	VI	II	I	II	IV	V
Группа тканей по наполнению												
Коэффициент наполнения	>0,95	>1,05	<0,75	0,75-0,95	<0,85	0,85 - 1,05	>0,95	>1,05	<0,75	0,75-0,95	<0,85	0,85-1,05
Рабочая скорость, мин ⁻¹												
- при одноцветном уточном механизме	260	260	200	200	200	200	260	200	200	200	200	200
- при двухцветном механизме	240	240	190	190	190	190	240	240	190	190	190	190
Момент заступа, (7)												
- при одномоментном заступе	30	30	40	30	40	30	--	--	--	--	--	--
- при рассыпчатом заступе:												
- для ремизок: -2 и 4, 3 и 4	--	--	--	--	--	--	20	20	10	10	10	10 (1)
- I и 3, I и 2							40	40	20	30	20	30 (2)
Установка скала и подскальной трубы по схеме на рис. 5.1												
- величина H, мм	б	б	а	A	а	а	в	г (3)	в	в	в	в
- величина h (4), мм	0; 15	0; 15	0	0; 15	0	0; 15	65	30	50	60	50	60
- величина, n ₁ (5) %	--	--	--	--	--	--	10	5	7	8	7	8
